



Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI



TURK ADIBI MUSTAFO QUTLU HIKOYACHILIGINING YETAKCHI TAMOYILLARI

Poshshajon Kenjayeva

*O'qituvchi, Filologiya fanlari doktori, professor,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: turk hikoyasi, Mustafu Qutlu, tamoyil, an'ana, modernizm, tahlil.

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy turk hikoyachiligining taniqli adiblaridan biri Mustafu Qutlu hikoyalari tadqiq etilgan. Uning hayoti va ijodi, asarlarining badiiy tili, yozuvchining so'z manbalari, adabiy ta'sir doirasi, shuningdek, adib ijodining yetakchi tamoyillari va uslubiy o'ziga xosligi haqida fikr yuritilgan. Maqolada tahlilga tortilgan hikoyalardagi eng muhim jihat shundaki, 90-yillardan keyin turk hikoyachiligi yangi sifat bosqichiga ko'tarildi. Bu davrdan boshlab, turk hikoyanavislari, real hayot muammolarini inson psixologik holatlari fonida tasvirlash tamoyilini ijodning bosh prinsipiga aylantirdilar. Xususan, M.Qutlu ijodida turk folklori, Sharq klassikasi an'analarini zamonaviy usulda qayta jonlantirish, shu asosda janr, syujet, qahramon va uslub komponentlarini yangilash tamoyili yetakchilik qiladi. Uning hikoyalarda syujet motivatsiyasi, ramz va timsollar modifikatsiyasi muvofiq tarzda qo'llangan. Xizr alayhissalom, Dada Qo'rqu, so'fiy, ertakchi, suv parisi, dengiz singari obrazlar yangi syujet, yangi hikoya voqeligi fonida badiiy inkishof etilgan.

Maqola mavzusini yoritishda yozuvchining "Karpuz" ("Taruuz"), "Sebebimsin" ("Sababchimsan"), "Kötü Bülbül" ("Bulbul intiqomi"), "Çiğdem Güzeli" ("Go'zal boychechak"), "Şafak Pembesi" ("Shafaq rangi"), "Hayat Güzeldir" ("Hayot go'zaldir") singari hikoyalari tahlilga tortilgan.

THE LEADING PRINCIPLES OF STORYTELLING OF THE TURKISH AUTHOR MUSTAFA QUTLU

Poshshajan Kenjayeva

*Teacher, Doctor of Philological Sciences, Professor,
Tashkent State University of Oriental Studies
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Turkish story, Mustafa Qutlu, principle, tradition, modernism, analysis.

Abstract: This article examines the stories of Mustafa Qutlu, one of the famous writers of modern Turkish storytelling. His life and work, the artistic language of his works, the sources of the writer's words, the sphere of literary influence, as well as the leading principles and methodological uniqueness of the literary work are discussed. The most important aspect of the stories analysed in the article is that after the 90s, Turkish storytelling has risen to a new level of quality. From this period, Turkish story writers turned the principle of depicting real life problems against the background of human psychological conditions into the main principle of creativity. In particular, M.Qutlu's work is led by the principle of reviving the traditions of Turkish folklore and Eastern classics in a modern way, and on this basis, updating the genre, plot, character and style components. In his stories, plot motivation, modification of symbols are used appropriately. Characters such as Khizr alayhissalam, Dada Korqut, a Sufi, a storyteller, a mermaid, and the sea are artistically developed against the background of a new plot and a new narrative reality.

In covering the topic of the article, the writer wrote "Karpuz" ("Watermelon"), "Sebebimsin" ("You are the Reason"), "Kötü Bülbül" ("The Nightingale's Revenge"), "Çiğdem Güzeli" ("Beautiful Boy"), "Shafak Pembesi" ("The Color of Dawn"), "Hayat Güzeldir" ("Life is Beautiful") and other stories were analysed.

ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ ПОВЕДЕНИЯ ТУРЕЦКОГО ПИСАТЕЛЯ МУСТАФЫ КУТЛУ

Пошшаджон Кенджаева

*Преподаватель, доктор филологических наук, профессор,
Ташкентский государственный университет востоковедения
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: турецкое повествование, Мустафа Кутлу, принцип, традиция, модернизм, анализ.

Аннотация: В данной статье рассматриваются рассказы Мустафы Кутлу, одного из известных авторов современного турецкого повествования. Обсуждаются его жизнь и творчество, художественный язык произведений, источники слов, использованные писателем, сфера литературного влияния, а также ведущие принципы и методологическое своеобразие литературного произведения. Важнейшим аспектом проанализированных в статье историй является то, что после 90-х годов турецкое повествование поднялось на

новый качественный уровень. С этого периода турецкие рассказчики превратили принцип изображения реальных жизненных проблем на фоне психологических состояний человека в главный принцип творчества. В частности, в творчестве М.Кутлу руководствуется принципом возрождения традиций турецкого фольклора и восточной классики на современный лад и на этой основе обновления жанровой, сюжетной, характерной и стилевой составляющих. В его рассказах уместно используется сюжетная мотивация, видоизменение символов и знаков. Такие персонажи, как Хизр алейхисалам, Деде Коркут, суфий, сказочник, русалка, море, художественно развиваются на фоне нового сюжета и новой повествовательной реальности.

Освещая тему статьи, проанализированы такие рассказы писателя, как «Karpuz» («Арбуз»), «Sebebimsin» («Ты причина»), «Kötü bülbül» («Месть соловья»), «Çiğdem Güzeli» («Красивый подснежник»), «Şafak Pembesi» («Цвет зари»), «Hayat Güzeldir» («Жизнь прекрасна»).

KIRISH

XX asrning 80-yillaridan boshlab turk hikoyachiligi shakl-mazmun jihatidan yanada taraqqiy eta boshlagani kuzatiladi. Turk adabiyotshunoslari bu davrni “Yangi izlanishlar davri” deb nomladilar. Bu davr hikoyachiligi Y.Qoplon, N.Duruel, H.Su, J.Kavukchi, O‘.Karabulut, A.Qutlu, M.Mungan, M.Gureli, A.H.Haksal, B.Uzuner, A.Yurdaqul, M.O‘ztosh, K.Bashar, K.Do‘ruk, F.Chicheko‘g‘li, A.Tunch, M.Qutlu, S.Ileri, J.Shakar, S.Yolsizuchanlar singari yangi nomlar bilan boyidi. Ularning hikoyalarida janr imkoniyatlari ham mazmun, ham shakl jihatidan kengaydi. Janr tarkibiga falsafiy-badiiy, individual-psixologik, ijtimoiy-maishiy va peyzajga xos unsurlar kirib kela boshladi. G‘arb adabiyotidagi ko‘rinishlari bilan aynan bo‘lmasa-da, milliy estetika, turk nasri doirasida shakllangan modernizm, postmodernizm elementlari paydo bo‘ldi.

Xususan, bu davrning yirik yozuvchisi Mustafu Qutlu hikoyalari boshqa yozuvchilardan farqli o‘laroq, falsafiy mushohadalar, inson botinining badiiy-psixologik talqini nuqtayi nazaridan o‘ziga xoslik kasb etadi.

TADQIQOTNING USULLARI

Zamonaviy turk adabiyotining taniqli yozuvchilaridan biri Mustafu Qutlu hikoyalarining o‘ziga xos xususiyatlari va yetakchi tamoyillarini aniqlash, zamon va qahramon psixologiyasini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etishdan iborat.

90-yillardan keyingi davr turk hikoyachiligining badiiy tamoyillarini yozuvchi Mustafu Qutlu ijodi misolida aniqlash va shu asosida davr hikoyachiligiga oid ilmiy-nazariy umumlashmalar chiqarish maqola oldiga qo‘yilgan vazifa hisoblanadi.

Usullar: Mustafu Qutlu hikoyachiligining yetakchi tamoyillarini tadqiq etishda qiyosiy-tarixiy va psixologik tahlil metodlaridan foydalanildi.

NATIJALAR

Zamonaviy turk yozuvchisi Mustafa Qutlu hikoyachiligining yetakchi tamoyillarini tadqiq etishga bag'ishlangan mazkur maqola natijalari 90-yillar turk hikoyachiligi, undagi obrazlar olami, uslubiy izlanishlar va yangilanishlar haqidagi qarashlarimizni kengaytiradi.

Mustafo Qutluning ijodida an'anaviy turk hikoyachiligiga xos usullarni ham, zamonaviy hikoyaga oid badiiy eksperimentlarni ham, ayni paytda, qadim Sharq hikmatnavislik an'alarini ham kuzatish mumkin. Shu bilan birga M.Qutlu asarlarida G'arb modernizmi va posmodernizmga xos ba'zi unsurlarning milliy estetika doirasida tajriba qilishga urinish mavjudligini ko'rish mumkin. Ammo buni sira ham G'arb modernizmining antigumanistik, go'zallikning ming qonuniyatlariga zid g'oyalari bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Chunki M.Qutlu tajribalari asosan shakl unsurlariga tegishli bo'lib, g'oya va badiiy mazmun jihatidan uning hikoyalari milliy, sharqona pozitsiyani sobit tarzda namoyon etadi.

Yirik turk adabiyotshunosi N.To'sunning quyidagi so'zlari ham fikrimizni to'la tasdiqlaydi: "Postmodern oqimining unsurlari Mustafa Qutlu asarlarida to'laligicha aks etmasada, u postmodernizm xususiyatlaridan butunlay bexabar emas".¹ Yana bir adabiyotshunos E.Gurpinar M.Qutlu ijodi haqida quyidagilarni bayon etadi: "Hikoyalarining asosiy qismida inson ichki olami, dunyoqarashi, hayot tarzi xususida fikr yuritadi. Bu bilan uni faylasuf demoqchi emasmiz. U hikoyalarida hamisha insoniy yashashni anglatishga harakat qiladi. Shu bilan birga, Qutluning yana boshqa nuqtayi nazari bor: "Hayot mazmunini tushunish, shunga ko'ra fikrlash, shunga ko'ra hayot kechirish... Inson shunday dunyoning ko'zmunchog'i, u o'ziga xos tarzda yashab o'tadi. Falsafa, ilm, din, butun insoniyat tarixi bu masala yechimi uchun harakat qildilar. Insoniy yashashning retsepti topilganmi, ajabo?!"² Ko'rinadiki, turk olimlarining birontasida 90-yillar turk hikoyachiligi, xususan, M.Qutlu ijodini aniq modernizm yoki postmodernizmga nisbatlash ruhi yo'q. Har uchala adabiyotshunos bu oqimlarga yaqin unsurlar haqida so'z yurityaptilar, xolos. Qolaversa, "hayot mohiyatini anglash", "insoniy fikrlash", "insondek yashash" singari falsafiy g'oyalar ming yillik Sharq falsafasi an'alarining aynan o'zidir.

Yozuvchining bugungacha "O'rtadagi odam" (1970), "Ko'ngil ishi" (1974), "Ichimizdagi yo'qsillik" (1981), "Yo tahammul, yo safar" (1983), "Bu aslida bunday" (1990), "Sir" (1990), "Hasrat va tasodif" (1998), "Uzun hikoya" (2000), "Hayot go'zaldir" (2011, 2015) singari hikoya to'plamlari nashr etilgan.

M.Qutluning "Hayot go'zaldir" to'plamidagi "Shodlik", "Shafaq rangi", "Har qushning bir shoxi bor", "Taruuz", "Ollloh mo'jizasi", "Qaytishda" hikoyalari qahramonlari, "faqir, kimsasiz, och-yalang'och", ammo shunga qaramasdan ularning ko'ngli toza, botin dunyosi xotirjam. Misol tariqasida "Taruuz" hikoyasiga e'tibor beradigan bo'lsak, unda oilaning nochorligi tufayli hammollik qilishga majbur bo'lgan oltinchi sinf o'quvchisi haqida hikoya qilinadi. Hikoya shunday boshlanadi:

"İkisi de fakir aile çocuđu.

Cemal altda Selim yedide okuyor.

Yaz tatillerinde evlerine yakın Sebze Hali'ne gidiyorlar. Belki bir iş çıkar, üç beş kuruş kazanırız diye.

¹ Tosun N. Modern Öykü Kuramları. Hece Yayınları, Ankara-2011. –S.54.

² Gürpınar E. Mustafa Kutlu'nun Hikayelerinin İncelenmesi. Yüksek Lisans Tezi. Muğla Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü. Muğla – 2005. –S.141. Bu haqda qarang: Dinçer Ş. Mustafa Kutlu'nun Hikayeleri ve Hikayeciliği. Yüksek Lisans Tezi. Trakya Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü. Edime-1999.

*Ama Hal'de iş bekleyen çok adam var. Amcalar, dayular, ağabeyler. Hem bunlar daha çocuk.*³ (“İkcalasi ham faqir oila bolasi. Jamol olti, Salim yettinchi sinfda o'qiydi. Yozgi ta'tilda uyiga yaqin joydagi sabzavot bozoriga borishadi. Balki ish topilib qolar, bir-ikki so'm pul toparmiz deya. Ammo bozorda ish qidirayotganlar soni talaygina. Amakilar, tog'alar, akalar. Bular hali bola bo'lsa...”)

Bolalar izg'iy-izg'iy zo'rg'a ish topishardi. Bir kuni ular tarvuz tashib uyga kech qolishadi. Jamol hayajon bilan uyga kiradi. Uning otasi ichkilikka mukkasidan ketgan bo'lib, oqshomlari uyda ichib o'tirardi. O'g'lidan xavotir olgan ona Jamolni ko'rib xursand bo'ladi, bola onasining qo'lga tarvuz va besh lira tutqazadi. “O'g'lim ulg'ayibdi, qo'lida tarvuz bilan kelibdi. Ko'z tegmasin”, - deya xursand bo'ladi ona. Ota esa kech qolgani uchun unga bir musht tushiradi. Ona tarvuzni so'yib dasturxonga olib kelganida: **“Baba elindeki rakı dolu çay bardağını masaya bırakıyor. Bir oğlana, bir karpuza bakıyor. Bir baba ne de olsa bir babadır. Karşısında, başı eğik, ağlamamak için dişini sıkın oğluna bakıyor. İçi kabarıyor:**

Karpuz ha! Gel lan buraya.

Cemal endişeyle yaklaşıyor babasına. Adam oğlunu dizine oturtup, yanağına, az önce tokatı çakıp kızarttığı yanağına bir öpücük konduruyor. Sonra her yüreği yufka sarhoş gibi sarılıyor oğluna, öpüyor, kokluyor.⁴

(“Ota qo'lidagi raqi to'la piyolani stolga qo'ydi. Bir o'g'ilga, bir tarvuzga qaradi. Nima bo'lganda ham ota-da. Oldida boshi egik, yig'lamaslik uchun tishini qisayotgan o'g'liga qaradi. Ichi achidi:

Ha, tarvuzmi! Hey, bu yerga kel.

Jamol hayiqib otasiga yaqinlashdi. U o'g'lini tizzasiga o'tirg'izib, bir oz avval yuziga tushirgan mushtdan qizargan yonog'ini o'pdi. Keyin yuragi nozik mast o'g'lini quchoqladi, o'pib hidladi.”)

Turk hikoyachiligining 30–80-yillarida badiiy talqin etilgan qashshoqlik mavzusida, asosan, ijtimoiy muammolar, qashshoqlik va qashshoq odamning tashqi holatlarini tasvirlashga e'tibor kuchli edi. M.Qutlu hikoyasining o'ziga xosligi shundaki, asarda qashshoqlikning o'zi emas, u keltirib chiqargan ruhiy-fojiaviy holat tasviri yetakchilik qiladi. Badmast otaning ichki pushaymoni, buni ichkilik hidi anqib turgan tanasi bilan his etishi, nohaq jazolagan o'g'lidan o'ziga xos tarzda uzr so'rashi o'quvchi qalbida beixtiyor achinish va tragik katarsis hislarini uyg'otadi.

Adibning “Hayot go'zaldir” (2011) hikoyalar to'plamida tabiat obrazi, peyzaj tasviri ustunlik qiladi. Inson xarakteri talqinida tamomila yangi usulni qo'llaydi. Endilikda qashshoq odam psixologiyasi kattalar tasviri orqali ochib beriladi. “Xarakter yaratishda tamomila faqirlar olamiga diqqat qaratadi; ularning ro'yosiga, hayotdagi kurashchanligiga... Faqir, kimsasiz, shuningdek, och-yalang'och bo'lsa ham ularni hayotda tirik, bor qilib, oyoqqa turg'izib ichki dinamikasiga quloq soladi”, degan fikrlarni o'qiyimiz bu haqda N.To'sun tadqiqotida.⁵

“Sababchimsan” hikoyasida shahar muhitiga tushib qolgan oddiy qishloq yigitining kechinmalari tasvirlanadi. Yozuvchi asar qahramoni Ibrohim orqali qishloq bolalarining bu muhitdagi nozik vaziyat va holatlarini tasvirlab beradi: **“İbrahim, ikinci sınıfta. Büyük şehre**

³ Kutlu M. Karpuz/ Hayat Güzeldir. (Tarjima bizniki – P.K.) Dergah Yayınları. İstanbul-2015. –S.129.

⁴ Kutlu M. Karpuz/ Hayat Güzeldir. (Tarjima bizniki – P.K.) Dergah Yayınları. İstanbul-2015. –S. 135.

⁵ Tosun N. Mustafa Kutlu: Bir Memleket Hikayecisi / Öykümüzün Kırk Kapısı. Hece Yayınları. Ankara-2013. – S.320.

alışamadı. Ne de olsa köylü. Köylünün derisi kalındır çivi bile işlemez. Dilini düzeltmedi. Bundan çok utanyor. Bazı kelimeleri yöre ağzı ile söylediğinde arkadaşları gülüyor.⁶

(“*Ibrohim ikkinchi bosqichda o‘qiydi. Katta shaharga o‘rgana olmadi. Nima bo‘lganda ham qishloqda tarbiya ko‘rgan. Qishloqda o‘sgan bolalarning terisi qalin bo‘ladi, hatto unga mix kirishi ham amrimahol. Tilini hech to‘g‘rilay olmadi. Bundan juda hijolatda. Ba‘zi so‘zlarni mahalliy shevada gapirganda do‘stlari ustidan kulishardi.*”) Shahar-qishloq kontrasti masalasi adabiyotdagi azaliy mavzulardan. Buni biz Tolstoy, Chexov, Dostoyevskiy, Gogol, Balzak, Stendal, Oybek, G‘.G‘ulom, A.Qahhor asarlarida ham ko‘ramiz. Qolaversa, Qutludan oldingi davr turk hikoyachiligida ham bu mavzu ma‘lum darajada yoritilgan. Ammo M.Qutlu bu yerda ham nozik nuqtani topadi. Shaharda o‘qiyotgan Ibrohim holatini, ruhiy hijolatlarining asosini til o‘zgaligi, qishloqcha sheva detali bilan ochib beradi. Haqiqatan ham, yurish-turish, kiyinish, ovqatlanish madaniyatini farosatli odam tezda o‘zlashtirib olishi mumkin. Ibrohim ham shunday farosatli, zukko, bilimdon yigit edi. Ammo bir masalada hamma “qishloqilar” qiynaladilar. Qancha harakat qilmasinlar bolalikdan artikulyatsion organlari ko‘nikkan “aksent”ni to‘g‘rilay olmaydilar. M.Qutlu mana shu holatni to‘g‘ri anglagan va badiiy-psixologik jihatdan mahorat bilan tasvirlay olgan.

Mustafo Qutlu 2011-yilda “Hayot go‘zaldir” nomli hikoyalar to‘plamini chop etdi. Inson ichki dunyosiga xos psixologik qismlarning badiiy strukturasi eslatadigan ushbu to‘plam Qutlu idealidagi inson tasavvurini ifoda etishga qaratilgan. Shuningdek, yozuvchining hikoyalarida xalq afsonalari, ertaklarining ta‘siri ham seziladi. “Mustafo Qutlu o‘zidan oldingi so‘z ustalarining adabiy merosini puxta o‘rgangan holda ba‘zan uzun, ba‘zan qisqa, ba‘zan esa hikmatli hikoyalar yozdi. U masnaviy, xalq hikoyalari, rivoyat va qissalarga yo‘g‘rilgan Sharq hikoyachiligi an‘analarini yoqtirishini har doim ta‘kidlaydi. Bularning baridan yozuvchi yarim asrlik ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma‘rifiy tariximizni hikoya qilishda foydalandi”, deb yozadi bu haqda turk adabiyotshunosi N.Mert.⁷ N.To‘sun esa M.Qutlu haqida: “Uning hikoyalarida “Dada Qo‘rqut hikoyalari”, “Ming bir kecha ertaklari”, “Masnaviy”, diniy rivoyatlar, qissalar, xalq hikoyalariga yaqin motivlar, o‘xshashliklar kuzatiladi. Bunday xususiyat hikoyani ba‘zan boshdan-oyoq qamrab olsa, ba‘zida esa kichik ramziy, shakliy jihatlarida namoyon bo‘ladi”, degan fikrni olg‘a suradi.⁸ Haqiqatan ham, yozuvchining “Bulbul intiqomi”, “Go‘zal boychechak” hikoyalarida sanalgan adabiy bosqichlarning ta‘siri seziladi. “Bulbul intiqomi” hikoyasi boshdan-oyoq xalq hikoyachiligi an‘analarini eslatadi. Buni adibning o‘zi ham asar xotimasida ta‘kidlab o‘tadi:

“Çok çok eski tarihlerde kaleme alınmış olan bu hikayenin adı “Bülbülün intikamı”dır. Yazılması, basılması, satılması yasak olduğundan zamanla unutulmuş, ortadan yok olmuştur.”⁹ (“*Uzoq o‘tmishda tilga olingan hikoyaning nomi “Bulbul intiqomi”dir. Bu hikoya yozish, bosish, sotish ta‘qiqlangani uchun zamonlar o‘tib unutilgan va yo‘q bo‘lib ketgan.*”) “Ertaklarga qaytaylik, - davom etadi M.Qutlu, – gullar hid taratsin, suvlar sharqirab oqsin, bulbullar sayrasin. Qarang, faqat shu “bulbul” uchun nazar solaylik, lutfan... Barmoqcha keladigan qushning asrlarni to‘ldirib kelgan ovozi bor edi, minglab sahifalarni qoralagan mojarolari bor edi. Gul bilan kechirgan sarguzashti qanchalab qalblarni yaralagan tilga olingan

⁶ Kutlu M. Sebebimsin / Hayat Güzeldir (Tarjima bizniki – P.K.) Dergah Yayınları. İstanbul-2015. –S.108.

⁷ Mert N. Modern Öykünün Serüveni: 1940‘tan Günümüze// Öykü. Sayı: 2. Ankara - 2004. -S.75.

⁸ Tosun N. Mustafa Kutlu: Bir Memleket Hikayecisi / Öykümüzün Kırk Kapısı. Hece Yayınları. Ankara-2013. – S.323.

⁹ Kutlu M. Kötü Bülbül / Hayat Güzeldir (Tarjima bizniki – P.K.) Dergah Yayınları. İstanbul-2015. –S.59.

edi”.¹⁰ Voqelik muallif monologi tarzida aks ettirilgan bu asarda Sharq adabiyotidagi “Gul va bulbul” mavzusi yangicha talqin etiladi. Ular shoshqin, sabrsiz, o‘z tashvishlari-yu globalizatsiya taloto‘plari ichida yashayotgan ijodkor qalb holatlarini istioraviy yo‘sinda tasvir etishga xizmat qiladi.

“Go‘zal boychechak” hikoyasi ham xalq ertaklari asosida yuzaga kelgan bo‘lib, hikoya qahramoni Ali buvisiga gul keltiradi, buvisi bu gul haqida unga ertak aytib beradi. Ertak asosida tabobatdagi shifobaxsh gulga xos xususiyatlar ochib beriladi. Ayni paytda hikoyada jonlantirish san‘ati ko‘zga tashlanadi. Shahzoda gullar yonida qandaydir ovozni eshitganday bo‘ladi. Diqqat bilan quloq solib, sariq gulning tilga kirganini anglaydi. Sariq gul shahzodaga shunday deydi: **“Şehzadem Sultan‘ın az bir zamanı kaldı. Bu bir sırdır ama açıklamaz isem kahrımdan ölürüm. Bu gece yaranın üzerine beni koyun.” Şehzade saksiya eğilmiş, acaba hangi çiçek konuşuyor diye anlamaya çalışmış. Bakmış içlerinden biri ateş gibi parıldıyor. Sesin o çiçekten geldiğini anlamış.**”¹¹ (“Shahzodam, Sulton malikaning umri nihoyalab qoldi. Bu sir, ammo buni aytmasam hasratda ketaman. Bu kecha yara ustiga meni qo‘ying. Shahzoda gultuvakka engashib, ajabo qaysi gul tilga kirdi deya hayratomuz tikilardi. Qarasa gullar orasidan birisi olov yanglig‘ porlardi. Ovoz o‘sha guldand kelganini payqadi.”) Borliqning sultoniga aylangan, yer va kosmosni bo‘ysundirishga erishgan, oyga uchgan, marsni ko‘zlagan, ammo sevgi va mehr borasida tosh qotgan inson qalbi haqida hikoya qilinadi bu zamonaviy ertakda. Tosh qotgan yurakni nima yumshatishi mumkin? Zimdan savol qo‘yadi muallif. Uni faqat go‘zallik va mehr yumshata oladi degan xulosaga keladi adib. Hikoyadagi sariq gul mana shu timsollarni ifodalaydi.

Ba‘zan M.Qutlu hikoyalarida turk folklori qahramonlariga murojaat etilganini ko‘ramiz. Masalan, “Shafaq rangi” hikoyasi qahramoni Qur‘on va ba‘zi xalq hikoyatlarida keladigan Xizr alayhissalomni tilga oladi: **“Uy, anaa!... Hızır uğradı evimize de ben bir dilek dilemedim. Yazık bana, vah bana.”**¹² (“Voy onaginam!... Uyimizga Xizr kelib-ketibdi, men tilak tilamabman. Esizgina-ya, afsuslar bo‘lsin.”)

Yoki “Pul yuki” hikoyasida shunday epizodik tasvirga duch kelamiz: **“Bunun üzerine Hızır Aleyhissalam Cenab-ı Hakk‘ın izni ile boz atna binip geceleri dolaşmaya başlamış. Nerde fukara bir aile varsa kapısını çalıyor, onlara gerekli yardımı yaptığı gibi ortadan kayboluyormuş. Her uğradığı eve bereket yağmış.”**¹³ (“Buning ustiga kechalari Xizr alayhissalom Janobi Haqning izni bilan bo‘z otiga minib aylana boshlabdi. Qayerda odamlar bo‘lsa, o‘sha uyning eshigini qoqib ularga kerakli yordam berarmishu to‘satdan g‘oyib bo‘larmish. U uchragan uyga esa baraka yog‘ilarmish.”) Bularning hammasi sharq mumtoz adabiyoti va turk folkloridagi mashhur obrazlarga, e‘tiqodiy qarashlarga borib bog‘lanadi. Qadim adabiyot adabiy usullariga xos irsoli masal, zarbul-masal singari poetik usullarning zamonaviy shaklda yangi tug‘ilganini ko‘rsatadi. Bundan yozuvchining turk folklori va sharq klassiklarini chuqur o‘rganganini aniq bilinadi. Ayrim hollarda M.Qutlu qahramonlari tomonidan xalq qo‘shiqlari ham ijro etiladi:

**“Arabaya sen bin
Faytona ben.
Anasını sen al**

¹⁰ Kutlu M. Hüzün ve Tesadüf. Dergah Yayın. İstanbul-2009. –S.26.

¹¹ Kutlu M. Çiğdem Güzeli / Hayat Hüzeldir (Tarjima bizniki – P.K.) Dergah Yayınları. İstanbul-2015. –S.66.

¹² Kutlu M. Şafak Pembesi/ Hayat Güzeldir (Tarjima bizniki – P.K.) Dergah Yayınları. İstanbul-2015. –S.59.

¹³ Kutlu M. Paranın Yükü / Hayat Güzeldir (Tarjima bizniki – P.K.) Dergah Yayınları. İstanbul-2015. –S.48.

*Kızını da ben*¹⁴

(“Aravaga sen min,
Foytung men,
Onasini sen ol,
Qizni esa men”)

Bizningcha, turk adabiyotshunoslarining M.Qutlu hikoyalarida postmodern unsurlarini ko‘rishlari uning ijodiga xos shunday jihatlar bilan bog‘liq. Darhaqiqat, jahon adabiyotida postmodern oqimining mashhur vakillari sifatida tanilgan L.X.Borxes, X.Kartosarlar ijodida turli adabiy, folklor, ilmiy va falsafiy manbalardan olingan iqtiboslarni qorishtirish, ulardan asar g‘oyasiga xos sistema bunyod etish tajribasi bor.

Mutaxassislar postmodernizm haqida turlicha fikrlarni ilgari suradilar. Xususan, adabiyotshunos D.Quronov: “Fransuz poststrukturalizmining dekonstruksiya (J.Derrida), postfroydizmning “shizoanaliz” va “ongsizlik tili” (Lakan, J.Delyoz, F.Gattari) ta’limotlari hamda semiotikadagi kinoyaviylik konsepsiyasi (U.Eko) postmodernizmning falsafiy asosini tashkil qiladi”, deb yozadi.¹⁵ Prof. M.Xolbekov uni: “XX asr ikkinchi yarmi ijtimoiy hayot va madaniyatdagi struktur jihatdan o‘xshash hodisalarni ifodalovchi atama bo‘lib, falsafiy tafakkurning klassitsizm davridan keyingi holati hamda badiiy san’atdagi bir qator uslublarni ta’riflash uchun qo‘llanib kelinmoqda. Postmodern – bu o‘ziga xos xususiyatlarga ega falsafiy negizga tayangan modernizmdan oldin va undan so‘nggi san’atni, shuningdek davrning ommaviy madaniyatini o‘z ichiga qamrab olgan zamonaviy madaniyatning ko‘rinishidir”, deya ta’riflaydi.¹⁶ Turk olimi T.Qoratosh esa: “Modernizmga qarshi tug‘ilib uning tanqidi ustiga qurilgan va alternativ asarlar yaratishga intilgan san’at va fikrlar oqimi. Postmodernizm ziyo tarqatish bilan birga insonni markazga qo‘yib ijodda ham mustaqil bo‘lgan modernizmi / zamonaviylikni va uning tushunchalari bilan yuzaga kelgan san’at asarlarini so‘roqlagan, rad etgan, tanqid qilgan tushuncha deyishimiz mumkin”, degan fikrni ilgari suradi.¹⁷ Prof. Q.Yo‘ldoshev bu haqda: “Postmodern san’at o‘zidan oldingi boshqa yo‘nalishlardan badiiy yaratiqdan ko‘ra uning yaratilish kechimiga; muallifga qaraganda o‘qirmanlar ommasiga; verbal (og‘zaki)likka nisbatan vizuallikka ko‘proq e’tibor qaratishi bilan ajralib turadi. Postmodern san’at asarlari dunyoning betartib (xaos)ligi, boshboshdoqligi, o‘tkinchi va anglamsizligidan iborat postmodern manzarasini berish uchun ko‘proq tasavvur, tush, ongsizlik singari holatlarni o‘z tasvir obyektini va vositasiga aylantiradi”, degan xulosaga keladi.¹⁸

Ko‘rinadiki, postmodernizm adabiyoti ko‘proq zamonaviylik va ommaviy madaniyat, yangidan shakllangan qorishiq san’atlar istifodasi bilan bog‘liq. Ammo M.Qutlu ijodidagi kuzatilgan tasvirlarda shu jihatlarning bosh planga chiqarilganini ko‘rmaymiz. M.Qutlu tashqi tomondan postmoderniga o‘xshab ketadigan, ammo mohiyatiga ko‘ra sharqona, milliy usulni taqdim etgan. Uning asarlaridagi realistlik mazmun xuddi shu nuqtayi nazardan shaklbozlik, so‘z va hissiyotlar o‘yinidan iborat g‘arb postmodernizmidan yuqori turadi.

Qolaversa, M.Qutlu hikoyalari syujeti ruhiy-falsafiy ifodaga yo‘g‘rilganligi bilan ham ahamiyatlidir. “Hayot go‘zaldir” hikoyasida ana shunday ifoda shakllariga duch kelamiz:

¹⁴ Kutlu M. Kötü bülbül / Hayat güzeldir (Tarjima bizniki – P.K.) Dergah yayınları. İstanbul-2015. –S.58.

¹⁵ Quronov D. va boshq. Adabiyotshunoslik lug‘ati. Akademnashr. T-2010. –B.227.

¹⁶ Xolbekov M. Postmodernizm nazariyasi / XX asr modern adabiyoti manzaralari: maqolalar to‘plami, Mumtoz so‘z nashr., T-2014. –B.311.

¹⁷ Karataş T. Ansiklopedik Edebiyat Terimleri Sözlüğü. Sütun Yayınları, İzmir-2014. –S.473.

¹⁸ Yo‘ldosh Q., Yo‘ldosh M. Badiiy tahlil asoslari.-T.: Kamalak, 2016.-B. 413.

“Yarabbi hayot ne kadar güzel. Ama bizim gözümüz kör, kulağımız sağır. Ancak dara düştüğümüzde, paçamız sıkıştığında görüyoruz bu güzellikleri. Bu ne kadar nimet! Bunların hangi birine şükretmeli? Etrafında olanlara mı, hayatta kaldığıma mı?”

Kır havasını derin derin içine çekti. Bildiği şükür dualarını okudu. Demek vadesi yetmemiş, daha göreceği günler var.

Bak kalp gözümü açtı bu kaza, gönlümdeki duygular zihnime aktı. Düşünmeli, sağlam kararlar almalı, Azrail etrafta dolaşıyor ne olur, ne olmaz.¹⁹

(“Yo, Rabbim, hayot bunchalar go‘zal. Biroq bizning ko‘zimiz so‘qir, qulog‘imiz kar. Faqat bu go‘zallikni nimanidir yo‘qotganda ko‘ra olamiz. Bu oliy ne‘mat-ku! Ularning qaysi biriga shukrona keltiraylik. Ko‘z o‘ngimdagi borliqqami yoki hayotda tirikligimgami! Adir havosidan chuqur nafas oldi. O‘zi bilgan shukronalik duolarini o‘qidi. Demak, vaqti-soati yetmabdi, hali oldinda ko‘radigan kunlari bor...”

Qara, bu falokat mening qalb ko‘zlarimni ochdi, dilimdagi hislar aqlimni egalladi. Fikr-mulohaza yuritishimiz, to‘g‘ri qarorlar qabul qilmog‘imiz darkor. Azroil atrofimizda girdikapalak, nima bo‘lar – nima qo‘yar...”) Ko‘p nuqta bilan ajratib berilgan parchalarning barchasida Sharq kishisining islom falsafasi asosida shakllangan qarashlari aks etgan. Insonning yashashidan ma‘no Allohga itoat va shukrda degan g‘oya ilgari surilgan. Imon-e‘tiqod, hayot, o‘lim, oila singari muhim masalalar qahramon kechinmalari fonida tasvirlangan. Hikoyadagi monologik ifoda ruhi bunday falsafiy qarashlarning ta‘sirchanligi va hayotiyiligini ta‘min etgan.

Jumladan, “Hayot go‘zaldir” to‘plamidagi aksariyat hikoyalar mavzusi tabiat hodisalariga asoslangan. “Gul tafsiri”, “Shafaq rangi”, “Bulbul intiqomi”, “Har qushning o‘z shoxi bor”, “Shamolning o‘g‘li”, “Oxirgi ikki yoz”, “Akatsiya gullaydimi” singari hikoyalari shular jumlasidandir. Mavzu va ifodaviy mazmun jihatdan M.Qutlu hikoyalari o‘zbek yozuvchisi N.Eshonqul hikoyalariga o‘xshab ketadi. N.Eshonqul hikoyalari mavzusi ham yuqorida ta‘kidlangan hikoyalar mavzusiga monand. “Shamolni tutib bo‘lmaydi”, “Yalpiz hidi”, “To‘zon” singari hikoyalari shu jumlagi kiradi. Shuningdek, M.Qutlu asarlarida badiiy ramzdan samarali foydalanadi. Ramz vositasida qahramonlar olamiga kirib boradi, hikoya mohiyatini ochishga muvaffaq bo‘ladi. Ba‘zi hikoyalar sarlavhalari ham M.Qutlu ijodida ramz vazifasini o‘taydi. Masalan, “Eshik” hikoyasini olaylik. Hikoyaning “Eshik” deb nomlanishi bejizga emas, chunki eshik ortida “turli o‘yinlar, hiyla-nayranglar” bor demoqchi bo‘ladi yozuvchi. Bu bilan dunyo eshigidan kirib kelgan har bir inson shunday muammolarga duch kelishini eslatadi, go‘yo. N.Eshonqul ijodida ham xuddi M.Qutlu hikoyasi nomiga hamohang hikoya bor. Hikoya “Ochilmagan eshik” deb nomlanadi. Hikoyalar mazmunan bir-birini takrorlamasa-da, mohiyatan yaqin. Aytaylik, orzularning armonga aylanishi manzarasi. Shuningdek, ikkala nosir hikoyalariga nazar tashlasak, ular ijodida gul timsoli ham mavzu, ham g‘oya, ham qahramon psixologiyasini ifodalashda ramziy ma‘no kasb etadi. N.Eshonqulning turkum hikoyalari “Yalpiz hidi”, M.Qutluning hikoyasi “Go‘zal boychechak” deb nomlanadi. Ba‘zan bir-biriga yaqin syujetlar, qahramonlar, kechinma-yu taqdirlar ikkala xalq adabiyotida ham birdek aks etgandek tuyuladi, albatta bu tabiiy hol. Chunki turk xalqi asrlar davomida o‘zbek xalqining madaniyati, san‘ati va adabiyotiga juda katta qiziqish bilan qaragan va yuksak ehtirom ko‘rsatgan.

XULOSA

Kuzatishlar natijasi shuni ko‘rsatdiki, Mustafafo Qutlu ijodining o‘ziga xosligi avvalo, asarlarining sodda, ravon uslubi, tilining sofligi, voqealarning ishonarli tasvirlanishida ko‘rinadi.

¹⁹ Kutlu M. Hayat Güzeldir / Hayat Güzeldir (Tarjima bizniki – P.K.) Dergah Yayınları. İstanbul-2015. –S.52.

Ularda qahramonning ilojisiz, og'ir vaziyatlardagi ruhiy iztiroblari hayotiy, badiiy mantiqqa mos tarzda yoritiladi. Hikoyalarda qahramon ruhiyatida sodir bo'ladigan ichki ziddiyat (kolliziya)lar yorqin tasvirlanadi. Qahramon ruhiyatidagi hissiyotlar qarama-qarshiligi, psixologik kurash real hayotidagi qiyinchiliklar va keskinliklar bilan bevosita bog'lanib ketadi. M.Qutlu hikoyalarida kichik portretlar tasviri orqali katta falsafiy g'oyalarni talqin etish, shu asosda obraz va xarakter individualligini ta'minlash singari badiiy priyomlar yetakchilik qiladi. Adib o'z uslubi, hayot voqeligiga nisbatan chuqur mushohadaviy yondoshuvi, botin haqiqatlarini reallashtirishga intilishi bilan F.Dostoyevskiyga xos teran va shafqatsiz realizm an'alarini yodga soladi. U turk tili, dialekt va shevalariga xos unsurlardan, turk xalqi turmush tarzi uchun xarakterli bo'lgan kundalik narsa-hodisalar va detallardan mahorat bilan foydalanadi. Qahramon ijtimoiy holati, hatto xayolot olami bilan bog'liq eng kichik detallar ham yozuvchi e'tiboridan chetda qolmaydi. Uning hikoyalarida obraz suvrati siyratning, siyrati esa suvratning badiiy-estetik ochqichi bo'lib xizmat qiladi. Shu ma'noda Mustafo Qutlu ijodi zamonaviy turk hikoyachiligining yetakchi tamoyillarini o'zida mujassam etganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman, turli madaniyatlar, falsafalar, adabiy bosqichlar, ramziy shakllar, obrazlar, detallar va uslub shakllarini badiiy jihatdan sintezlagan 1990-2000-yillar turk hikoyanavisligi o'z mazmuni, badiiy g'oyasi nuqtayi nazaridan milliy, ma'naviy ko'lamiga ko'ra yangi hodisa sifatida jahon adabiyoti tarixidan o'ziga munosib o'rin egallaydi.